



## ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARGA INGLIZ TILI O'QITISH MUAMMO VA YECHIMLARI

**Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi**

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarga, xususan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ingliz tili o'qitish muammolar va ularning yechimlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Ular uchun mo'ljallangan qulay va samarali metodlardan namunalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kar-soqov, ruhiy jarayon, motivatsiya, natija, ko'rgazmali qurollar.

**Аннотация.** Эта статья посвящена проблемам обучения английскому языку детей с органиченными возможностями, особенно глухих детей, и их решениям. Приведены примеры удобных и эффективных методов, разработанных для них.

**Ключевые слова:** глухой, умственный процесс, мотивация, результат, визуальное оружие.

**Annotation.** This article highlights the current problems and their solving of teaching English to children who are deaf. In this article was mentioned effective and comfortable methods.

**Key words:** deaf, mental process, motivation, outcome, visual aids.

### KIRISH

Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab taboro ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilining jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, ishlatilish darajasi juda yuqori ko'rsatgichda. Jahon minbarlariga chiqish uchun ham aynan ingliz tili ko'prik vazifasini o'taydi.

Yurtimizda barcha soha singari chet tillar o'qitish tizimiga ham tubdan o'zgartirish kiritilib, jahon andozalariga mos tizim yaratilgan. Ushbu sohada yetarli malakaga ega kadrlar tayyorlash, ilmiy izlanuvchi, tadqiqotchilari yetali darajada sharoit yaratish va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chet tillar sohasida bugungi kunda minglab tadqiqotchilar "Ingliz tili o'qitish metodikasi", "Ingliz tilida nutq o'stirish malakasi" "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Chet tillar o'qitishda innovatsion yondashuvlar" kabi bir qator mavzularda J. J. Jalolov, Professor L. T. Ahmedova, B. Jafarov kabi bir qator olimlarimiz o'z tadqiqotlarini olib borishmoqda [1]. Ammo, imkoniyati cheklangan, xususan, eshitish qobiliyatini yo'qotgan o'quvchilarga chet tillar o'qitish tizimida yechilishi kerak bo'lgan muammolar bisyor. Birinchidan, eshitish qobiliyatini yo'qotgan o'quvchilar uchun ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar juda kam, ikkinchidan, kar-soqov bolalarga chet tilidan dars bera oladigan malakali mutaxassislar yetishmaydi, ular uchun maxsus kitoblar nashr etilmagan.



Quyida kar-soqov bolalarga ingliz tili o'qitish bo'yicha umumiy bosqichlar sanab o'tilgan:

1-bosqich. Kadrlar tayyorlash. Ingliz tili mutaxasislari uchun imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash malakasini shakllantiruvchi ilmiy, amaliy seminarlar, o'quv-dasturlar tashkil etish. Bu o'quv kurslarida ishtirok etgan o'qituvchilarning ko'ngilli ravishda o'z hamkasblariga o'rgatish tizimlarini takomillashtirish;

2-bosqich. Imkoniyati cheklangan bolalarga chet tillar o'qitish sohasida o'quv adabiyotlar va o'quv uslubiy qo'llanmalar bilan taminlash. Ushbu sohada faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilarni har tomonlama qo'llab quvvatlash va ularni rag'batlantirish;

3-bosqich. Imkoniyati cheklangan bolalarga ingliz tili o'qitishni tizimli tashkil etish. Imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida chet tillar o'rganishni targ'ib etish, tilni mukammal egallagan o'quvchilarni namuna sifatida tengdoshlariga ko'rsatish;

4-bosqich. Hamkorlik. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari, ingliz tili o'qituvchilari va pedagog-psixologlar o'rtasida doimiy aloqani tashkil etish. Bolalarda kechadigan ruhiy o'zgarishlar haqida doimiy axborot almashinish.

Kar-soqov bolalarga ingliz tili o'qitishda o'qituvchining vazifalari:

- Motivatsiya. Birinchi dars boshlangandayoq nima uchun aynan ingliz tilini o'rganish ular uchun muhim va kerak ekanligini aniqlashtirib berish. Aniq maqsadni belgilash. Toki, ular chet tilini o'rganishni shunchaki emas, balki aniq manzilga yo'naltirilgan maqsad deya bilsinlar. O'quvchilarning kichik yutuqlarini ham katta e'tibor bilan rag'batlantirib borish;

- Metodika. Bolalarning eshitish qobiliyati sust yoki umuman yo'qligini inobatga olib, dars mashg'ulotlarini shunga asosan tashkillashtirish, o'rganish uslublarining ba'zilaridan foydalanish, misol uchun: "reading, writing and even speaking" lekin ular eshitaolishmagani bois "listening" orqali o'rganish maqbul emas [2]. "Speaking" malakasini oshirishda esa bevosita qo'l harakatiga asoslangan, surdo tiliga murojat etish, shu orqali chet tilida tovushsiz so'zlash imkoniyatini yaratish;

- Kommunikatsiya. Ular bilan muloqotga kira olish qobiliyati bo'lishi, ya'ni, surdo tilini mukammal o'rganishi, axborotlarni o'quvchilarga yetkazaolishi va qabul qilishi;

- Kuzatuv. O'quvchilarda yuz beradigan ruhiy holatni doimiy kuzatib turishi, darslarni o'zlashtirishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni hal etishning qulay usullaridan foydalanish, o'quvchiga dalda, ishonch beraolishi zarur. Undan tashqari uning ota-onasi va psixologlar bilan doimiy aloqada bo'lishi;



- Jihozlar. Xonaning jihozlanishi ham o'quvchilarga mos va qulay bo'lishi kerak. Yorug'lik yetarli darajada bo'lishi va stol stullarning aylana shaklda joylashishi maqsadga muvofiq [3]. Bolalar eshita olishmagani bois, ularga o'qituvchi va doska har tomondan ko'rinishi kerak. Ko'rgazmali qurollar ham shunga yarasha bo'lishi;

- Muammolar va yechimlar. Dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilar oson mavzulardan qiyiniga qarab o'ta boshlashadi shu jarayonda ularda zerikish, havsalasizlik va o'ziga bo'lgan, til o'rganishga bo'lgan ishonchsizlik kuchayadi. Bu holatni payqagan o'qituvchi zudlik bilan zarur choralarni ko'rishi kerak. Ularga bu jarayon barcha o'quvchilarda bo'lishini, ular albatta bu bosqichdan o'tib, ijobiy natijaga erishaolishlarini tushuntirishi darkor. Ularga chet tillarini o'rgangan va o'rgana olgan imkoniyati cheklangan mashxur insonlarni misol qilib keltirish, ulardan o'rnak olishga undashi kerak.

Ingliz tili o'qitishda samarali natijaga erishishning yana bir asosiy qismi bu to'g'ri metod tanlay bilishdir. Kar-soqov bolalar uchun foydalaniladigan metodlarga qo'yiladigan umumiy talabalar:

- Metod aniq bir maqsadga yo'naltirilgan, uning natijasi oz fursatlarda namoyon bo'ladigan, bajarishga qulay zamonaviy bo'lishi lozim [4]. Undagi texnologiyalar o'quvchilarning ruhiyatini ko'tarishga xizmat qiluvchi va qiyin mavzularni osonlashtirib o'rganish imkoniyatini berishi darkor.

- Mavzular bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'lishi. Bu xilma xillikni taminlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi 7-10 yosh atrofidaligini inobatga olsak, ular uchun darsdan ko'ra o'yin o'ynash qiziqarliroq tuyiladi [5].

- Zamonaviy ped-texnologiyalarini mujassamlashtirish barobarida, milliy o'ziga xoslik bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

- Metodlarni bajarish jarayonida deyarli barcha o'quvchilar bir vaqtning o'zida ishtirok eta olishlari [6], bir- birlariga halaqit emas balki yordam va ko'mak berishlarini talab etuvchi bo'lishi, shuningdek, tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori bo'lishi, o'quvchilarning badiiy estetik dunyoqarashi, fikrlash doirasini o'stira olishga qaratilgan metodlar tavsiya etiladi.

## **XULOSA**

Odam qilgan ishni odam qila olgani kabi, chet tillarni ham imkoniyati cheklangan barcha insonlar, bolalar, kattalar o'rgana oladi. Xoh, u ko'zi ojiz, xoh kar-soqov, yoki jismoniy imkoniyati chegaralanganmi buning farqi yo'q. Asosiysi ularda sog'lom fikr va sog'lom ruh mujassam. Shunchaki, ularga to'g'ri metodlardan foydalanilsa, qo'llab quvvatlab ishonch bildirilsa, albatta, oz fursatlarda katta ijobiy natijalariga erishish mumkin bo'ladi.



## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. J. Chet tillar o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi nashriyoti. 2012, b-87-93.
2. Huse H. R. The psychology of foreign language study. Chappel Hill, 1999. p-90.
3. Westwood P. What teacher need to know about learning difficulties? Australia: ACER Press. 2008. p-25.
4. Isoqov B. Oila jamiyatning bo'lagi. Namangan nashriyoti, 2018. b-43.
5. Karimova V. M. Psixologiya. - T.: Sharq, 2002. b-108.
6. National center on Disability and journalism: <http://ncdj.org/style-guide/>

